

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3-SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

X.M.Shermatova, G.A.Karaboyeva	
Zamonaviy axborot texnologiyalarining yosh avlod tarbiyasiga psixologik ta'siri tahlili.....	141
I.T.Tojiboev, Z.X.Komilova	
Professional ta'lim muassasalarida dasturlash tillarini o'qitishning zamonaviy usullari	145
Z.X.Mamatova	
Zamonaviy informatika mashg'ulotlariga qo'yilayotgan metodik talablarni takomillashtirishning tashkiliy-pedagogik omillari.....	151
A.Y.Axmedov, Z.F.Sherqo'ziyeva	
Ta'lim samaradorligini oshirishda innovatsion va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish	156
B.B.Djalalov	
Interfaol o'qitish jarayonida bo'lajak o'qituvchilarda innovatsion kompetentlikni shakllantirishning pedagogik tizimi.....	160
B.S.Siddiqov	
O'quvchilarda aksiologik kompetensiyalarni rivojlantirish mexanizmlari.....	165
D.A.Yo'ldosheva	
Akmeologik yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning kreativ kompetentligini rivojlantirish zamonaviy pedagogikada zaruriyat sifatida	170
I.I.Tuychiyeva, Z.Axunova	
Yuqori sinf o'quvchilarining ma'naviy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik ahamiyati....	174
J.U.Tojiboyev	
Talabalarning badiiy-estetik kompetentligini rivojlantirish texnologiyasi	178
M.O.Karimova, X.X.Tojiyev	
Bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik tayyorgarligini rivojlantirish muammosi	183
H.A.Абдуллаева	
Педагогические проблемы формирования исследовательских компетенций будущих учителей.....	190
N.S.Temirov	
Oliy o'quv yurtida mustaqil ta'lim orqali talabalar bilimini oshirishning zamonaviy yondashuvlari	194
O.F.Hamrayeva	
Talabalarda irodaviy sifatlarni shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari.	199
Sh.O.Aripov	
Xorij olimlarining o'g'il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlash jarayonida gender yondashuvni tadbiq etishga doir fikirlari	204
Sh.N.Mehmonaliyev	
Koshifiyning adabiy-pedagogik merosi va uning yoshlarning ma'naviy ahloqiy qadriyatlar tizimiga ta'siri.	208
U.Q.Maqsudov	
Modernizatsiyalash sharoitlarida talabalarning kasbiy dunyoqarashni shakllantirish imkoniyatlari.....	212
O.N.Fozilova	
Maktabgacha ta'limda xorijiy mamlakatlar tajribasi (Buyuk Britaniya)	217
M.E.Xallokova	
Bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda o'yin texnologiyasining faollashtiruvchi omillari.....	222
I.S.Soliyev	
Maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining axborot kompetentligini rivojlantirishning tashkiliy omillari	227
F.O.O'rinova	
Bo'lajak o'qituvchilarda intellektual kompetentlikni rivojlantirish zarurati va ijtimoiy ahamiyati	232
R.Y.O'rinov	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining intellektual faolligini oshirishning integrativ texnologiyalari.....	238



UO'K: 374.26.370.1:681+37.377

**YUQORI SINIF O'QUVCHILARINING MA'NAViy KOMPITENTLIGINI
RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK AHAMIYATI****ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ РАЗВИТИЯ ДУХОВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ
СТАРШКОЛНИКОВ****PEDAGOGICAL PRINCIPLES OF DEVELOPING SPIRITUAL COMPETENCE OF HIGH
CLASS STUDENTS****Tuychiyeva Inoyatxon Ibragimovna¹** ¹Farg'ona davlat universiteti pedagogika kafedrasini mudiri, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dotsent**Axunova Zarina²**²Farg'ona davlat universiteti pedagogika kafedrasini magistranti**Annotasiya**

Mazkur maqolada bugungi kunda yuqori sinf o'quvchilarining ma'naviy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik asoslari mazmun mohiyati yoritilgan. Ta'lim sifatini va samaradorligini takomillashtirish, yoshlardagi kasbiy o'sishga intilishni rivojlantirishning amaliy asoslaridan biri sanaluvchi shaxs kompetentligi ahamiyatini kengroq yoritishda kasbiy yetuklik darajasidagi mutaxassis kompetentsiyalari klasteriga murojaat etish maqsadga ularning fanlar bo'yicha amaliy ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha ko'plab dasturlar Ta'limga kompetent yondashuv o'quvchilarda hosil bo'lgan kompetensiyalardan shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy hayotda uchraydigan turli vaziyatlarda samarali foydalanishga o'rgatishni ko'zda tutadi. Bunda kutilmagan noaniq, yangi, muammoli vaziyatlarga duch kelinganda tegishli bilim, ko'nikma, malakalardan foydalana olishga alohida e'tibor qaratiladi, ustuvor vazifalar to'g'risidagi fikr mulohazalar bayon qilingan.

Аннотация

В данной статье раскрыта сущность педагогических основ развития духовной компетентности школьников сегодня. В целях повышения качества и эффективности образования, развития у молодежи стремления к профессиональному росту, более широкого понимания важности личностной компетентности ставится цель обратиться к кластеру профессиональных компетенций специалистов, во многих программах по формированию их практических навыков по предметам. Компетентный подход к образованию предполагает научить студентов эффективно использовать компетенции, сформированные в различных ситуациях личной, профессиональной и общественной жизни. Особое внимание уделяется умению использовать соответствующие знания, навыки и умения при столкновении с неожиданными, неопределенными, новыми, проблемными ситуациями.

Abstract

This article describes the essence of the pedagogical foundations of developing the spiritual competence of high school students today. In order to improve the quality and efficiency of education, to develop a desire for professional growth among young people, in the wider understanding of the importance of personal competence, the aim is to turn to the cluster of professional competences of experts, many programs on the formation of their practical skills in subjects. A competent approach to education envisages teaching students to effectively use the competences formed in different situations in personal, professional and social life. Special attention is paid to the ability to use relevant knowledge, skills, and abilities when facing unexpected, uncertain, new, problematic situations.

Kalit so'zlar: yuqori sinf o'quvchilari, yangi taraqqiyot, zamonaviy dunyoqarash, ilmiy-nazariy qarashlar, uzluksiz ta'lim, individual sifatlar, barkamol inson, ta'lim standartlari, fuqarolik jamiyatini, ilmiy-metodik

Ключевые слова: старшекласники, новые разработки, современное мировоззрение, научно-теоретические взгляды, непрерывное образование, индивидуальные качества, всесторонне развитая личность, образовательные стандарты, гражданское общество, научно-методология.

Key words: high school students, new development, modern outlook, scientific-theoretical views, continuous education, individual qualities, well-rounded person, educational standards, civil society, scientific-methodology.

KIRISH

Bugungi kunda jamiyatimizning barcha sohalarida o'tkazilayotgan islohotlar uzluksiz ta'lim tizimiga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Umumta'lim maktablari oldiga yangi maqsad va vazifalar qo'yilmoqda. Barcha o'zgarishlarning maqsad va mohiyati markazida rivojlanayotgan o'quvchi shaxsi uning maqsadi va o'zini anglashi hamda o'zini tadqiq etishi, shaxs bo'lib yetishishi, ijodini namoyon etish kabi masalalar turadi.

O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ma'naviy-ma'rifiy ishlarining samarasi va ta'sirchanligini oshirish, ularning ko'lami va miqyosini yanada kengaytirish, mamlakat aholisi, avvalo, yoshlar qalbida amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik hisini kuchaytirish, targ'ibot-tashviqot va tarbiya yo'nalishidagi ishlarni ilmiy asosda tashkil etish, mazkur sohaga doir ilmiy va uslubiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan doimiy monitoring tizimini joriy qilish ustuvor vazifalar sifatida belgilab olingan. Bu esa, o'quvchilarda ma'naviy kompetentlikni rivojlantirishning umumkasbiy kompetensiyalar tizimidagi o'rni va rolini ochib berish, pedagogik-psixologik fanlarning aksiologik imkoniyatlarini yoritib berish hamda muloqotning ijtimoiy-perseptiv uslubini faollashtirishga doir vaziyatlarni ishlab chiqishni taqozo etadi.

So'nggi yillarda ta'lim tizimi, shu jumladan, oliy ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiya jarayonlarini tashkil etishning huquqiy asoslarini takomillashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari sifatida ta'lim sohasida kamsitishlarga yo'l qo'yilmasligi, ta'lim olishga doir teng imkoniyatlarning ta'minlanishi, ta'lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarining singdirilganligi, ta'lim va tarbiyaning insonparvarlik, demokratik xususiyati kabilari belgilab berilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ta'limga kompetent yondashuv o'quvchilarda hosil bo'lgan kompetensiyalardan shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy hayotda uchraydigan turli vaziyatlarda samarali foydalanishga o'rgatishni ko'zda tutadi. Bunda kutilmagan noaniq, yangi, muammoli vaziyatlarga duch kelinganda tegishli bilim, ko'nikma, malakalardan foydalana olishga alohida e'tibor qaratiladi. Shu bois har bir fanni o'qitish jarayonida uning mazmuni hamda xususiyatlaridan kelib chiqqan holda unga doir kompetensiyalar shakllantiriladi.[1]

O'quvchilarda kompetensiyaviy yondashuvni shakllantirish va rivojlantirish muammosini professor A.Abdugodirov shunday ta'kidlaydi, kompetentlikni rivojlantirish – bu insonning butun umri davomida to'xtamaydigan jarayondir.[2]Aslida, ta'lim tizimi uchun kompetensiyaviy yondashuv mutlaqo yangitushuncha emas. Ushbu yondashuv elementlari doimo ta'lim sifatini boshqarish va ta'limdagi kadrlar tayyorlashning mazmunida bo'lib kelgan.

O'quvchilarda ma'naviy-axloqiy kompetensiyalarini rivojlantirish o'ziga xos bosqichlarda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Bunda, avvalo, ma'naviy- tarbiyaning maqsad hamda vazifalarini to'g'ri yo'lga qo'ya bilish, ish mazmunini aniqlash, maqsadga erishish uchun tizimli yondashuvni tashkil etish zarur. Ma'naviy tarbiyaning maqsadi quyidagicha belgilandi: ta'lim muassasalarida izchillik asosida olib boriladigan ta'lim-tarbiya natijasida ma'naviy-axloqiy sifatlarga ega bo'lgan kasbiy kompetentli mutaxassis tayyorlash. O'quvchilarning ma'naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirishda quyidagi vazifalar nazarda tutiladi:

– uzluksiz ta'lim-tarbiyaning har bir bo'g'inida ma'naviy tarbiya maqsadiga erishish yo'llarini izlab topish;

– ta'lim-tarbiya jarayonida turli ta'sir vositalari orqali o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash;

– ma'naviy tarbiyada shaxsga yo'naltirilgan metod va vositalar, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish;

– yoshlarning ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalanganlik darajasini aniqlash maqsadida anketa so'rovlarini o'tkazib, natijalarini qayd etib borish;

– ma'naviy-axloqiy sifat (kompetensiya)larga ega bo'lgan, o'quvchilarni kompetentli ijtimoiy faol mutaxassis sifatida tayyorlashga erishish.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ta'lim muassasalarida o'qitiladigan tarbiyaga xos fanlarni o'qitish jarayonida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya texnologiyalari hamda hamkorlik ta'limini amalga oshirish muhim sanaladi. Mazkur ta'lim-tarbiya texnologiyalari orqali talaba shaxsini ijtimoiylashtirishga erishish imkoniyati yaratiladi.

Olib borilgan tadqiqotimiz davomida tahlillarga tayanib o'quvchi-yoshlarning ijtimoiy faolligi va tashabbuskorligi asosida ma'naviy tarbiya indikatorlarini shakllantirish va rivojlantirishda ma'naviy-axloqiy bilimlar, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, ma'naviy-axloqiy fazilatlar, ma'naviy faoliyat kabi komponentlarni o'z ichiga olishi aniqlandi.

Nazariya va amaliyot o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik eng dolzarb muammolardan biri bo'lib, u kompetentlikni rivojlantirishga, mehnat faoliyatini amalga oshirishga va integratsiyalashgan kompetensiyaga asoslangan yondashuvning aniq yo'nalishi bilan bog'liq zaruriy kompetensiyalarni har tomonlama o'zlashtirishga yordam beradi. Kompetensiyaviy yondashuv ta'limning amaliyotga yo'naltirilganligini, uning pragmatik, amaliy-professional jihatlarini kuchaytiradi. Pragmatik (amaliy) ma'noda uni bilim, ko'nikma va malakalarga qarama-qarshi qo'yish mumkin emas. Ammo bu "BKM" (bilim-ko'nikma-malaka) yondashuviga o'xshamaydi, chunki u bilimlarning ko'nikmalarga tobeligini o'rnatadi va masalaning amaliy tomoniga e'tiborni qaratadi. Bu esa o'quv natijalarini tavsiflash kompetensiyalar darajasida bo'lishi kerakligini anglatadi.

Kompetensiya tushunchasining tobora ommalashib borayotganiga qaramay, hali ham uning umumiy qabul qilingan ta'rifi mavjud emas va ushbu atamani ta'riflash va ishlatishda turli xil yondashuvlarni baholash bo'yicha boshlang'ich nuqta hali topilmagan.

Lotin tilidagi "compete" atamasi "bilish", "qodir bo'lish", "erishish", "mos kelish" kabi ma'nolarni anglatadi.[3]

Kompetensiya tushunchasining tobora ommalashib borayotganiga qaramay, hali ham uning umumiy qabul qilingan ta'rifi mavjud emas va ushbu atamani ta'riflash va ishlatishda turli xil yondashuvlarni baholash bo'yicha boshlang'ich nuqta hali topilmagan.

Lotin tilidagi "compete" atamasi "bilish", "qodir bo'lish", "erishish", "mos kelish" kabi ma'nolarni anglatadi.

"Kompetensiya" va "kompetentlik" atamaları dastlab qonunchilik sohasi bilan bog'liq kategoriya sifatida qo'llanilgan. Bu nuqtai nazarga ko'ra, kompetensiya deganda davlat organiga yoki mansabdor shaxsga qonun yoki boshqa normativ hujjat bilan berilgan vakolatlar, burchlar va huquqlar; kompetentlik deganda esa subyektning o'z kompetensiyasini amalga oshirish qobiliyatlari va ko'nikmalariga muvofiqligi tushuniladi. Kompetensiya - bu qonun bilan ruxsat berilgan boshqaruv shakli. Kompetentlik - bu subyektga tegishli bo'lgan sifatdir.

Ma'naviy kompetentlik shaxs integrativ xususiyati sifatida o'zida ma'naviy bilim- donlik, ma'naviy qadriyatlar tizimida o'z o'rnini aniqlash imkoniyati va hayotiy vaziyatlarning keng ko'lamida ma'naviy yetuklikni namoyon qilish qobiliyatini birlashtiradi. Mazkur kompetentlikning asosiy funktsiyalariga quyidagilar kiradi: aksiologik, yo'naltiruvchi va boshqaruvga doir.

XULOSA

Yoshlardagi kasbiy o'sishga intilishni rivojlantirishning amaliy asoslaridan biri sanaluvchi shaxs kompetentligi ahamiyatini kengroq yoritishda kasbiy yetuklik darajasidagi mutaxassis kompetensiyalari klasteriga murojaat etish maqsadga muvofiqdir. Adabiyotlarda ta'kidlanishicha, kompetensiya - samarali ish jarayonining asosida yotgan insonlarning o'zgaruvchan kayfiyat va o'zini tutish holatining o'lchanishidir.

Misol uchun, "samarali qaror qabul qilish" kompetensiyasi quyidagi xulq turlariga klaster shaklida bo'linishi mumkin: Oxirgi yigirma yil davomida "kompetensiyalar" so'zi boshqaruv samaradorligi bilan bog'liq bo'lgan barcha atamalarni o'zida jamlagan tushuncha sifatida talqin qilindi. Oxir-oqibat, bunday umumlashtirish qator chalkashlik va tushunmovchiliklarga olib keldi. Bunday tushunmovchiliklarning asosiy sababi "kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalarining noto'g'ri qo'llanilishi bo'lishi mumkin.

Ta'limga kompetent yondashuv o'quvchilarda hosil bo'lgan kompetensiyalardan shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy hayotda uchraydigan turli vaziyatlarda samarali foydalanishga o'rgatishni ko'zda tutadi. Bunda kutilmagan noaniq, yangi, muammoli vaziyatlarga duch kelinganda tegishli bilim, ko'nikma, malakalardan foydalana olishga alohida e'tibor qaratiladi.

Kompetensiyaviy yondashuv yangi ta'lim mazmunini loyihalash va yangi ta'lim texnologiyalarini izlash, uzluksiz ta'limni ta'minlash, kompetentlikni shakllantirish orqali butun hayot davomida ta'lim berish, ijtimoiy kompetensiyani tarbiyalash – yashash ko'nikmasi, guruhda, jamoada o'qish va ishlash qobiliyati, hamkorlik qilish qobiliyatini rivojlantirish, nizolarning oldini olish qobiliyati asos bo'lishi kelib chiqadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги Қонуни. (23.09.2020). // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 24.09.2020 й., 03/20/637/1313-сон.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 26 мартдаги “Маънавий- маърифий ишлар тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-5040-сон қарори. // “Халқ сўзи” газетаси, 2021 йил 27 март, № 62 (7842).
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 27 июлдаги “Олий маъ- лумотли мутахассислар тайёрлаш сифатини оширишда иқтисодиёт соҳалари ва тармоқларининг иштирокини янада кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3151-сон қарори. - <https://lex.uz/docs/3286194>
4. Максакова В.И. Педагогическая антропология: Учеб. пособ. для студ.высш. учеб. заведений. – М.: Академия, 2001. –С.61.
5. Абдуқодиров А.А., Тўраев Б.З. “Информатика ва ахборот технологиялари” соҳасидаги бўлажак мутахассис кадрларнинг касбий компетентлигини шакллантириш назарияси ва методикаси. Монография.-Т.: “Наврўз”, 2015. -Б.10.
6. Равен Дж. Компетентность в современном обществе: выявление, развитие и реализация / Пер. с англ. М., «Когито-Центр», 2002. – 396 с.